Somatik huquqlar nazariyasi XX asr oxiri – XXI asr boshlarida bioetik muammolar yuzaga kelishi bilan shakllana boshladi. V.I. Kruss kabi olimlar somatik huquqlarni alohida inson huquqlari avlodi sifatida taklif qildilar[2,43]. V.I.Krussning fikriga ko'ra, somatik huquqlar insonning o'z tanasining asl jismoniy yaxlitligini tubdan o'zgartirish da'vosini ham o'z ichiga oladi, va bu bilan shaxs jamiyatga nisbatan ham muayyan da'volar qo'yadi[2,43]. Somatik huquqlarning paydo bo'lishi bioetika sohasidagi rivojlanish bilan parallel borgan: bioetika fanining shakllanishi (1970-yillardan boshlab) inson tanasi bilan bog'liq ilmiy-texnikaviy taraqqiyot oqibatlarini axloqiy-huquqiy baholashga yo'naltirildi. Shunday qilib, somatik huquqlar nazariyasi to'rtinchi avlod inson huquqlari sifatida maydonga chiqmoqda, chunki u birinchi uch avlod (shaxsiy-siyosiy; ijtimoiy-iqtisodiy; kollektiv-solidar huquqlari)dan konseptual farqlarga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Somatik huquqlar bo'yicha ilmiy adabiyotlar asosan XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllangan bo'lib, ular bioetika, tabiiy huquq nazariyasi, shaxsiy avtonomiya va tibbiy-huquqiy tartibga solish konsepsiyalarini o'z ichiga oladi. Mazkur mavzudagi ilk fundamental yondashuvlar V.I. Krussning "somatik huquqlarni inson huquqlarining alohida avlodi" sifatida ajratgan konsepsiyasida aks etgan bo'lib, u insonning o'z tanasi ustidan radikal darajada tasarruf qilish huquqini nazariy jihatdan asoslagan. M.A. Lavrik, E.L. Potseluev, E.S. Danilova kabi rus tadqiqotchilari somatik huquqlarni tibbiy-biologik texnologiyalar, transplantatsiya, reproduktiv texnologiyalar va genom ustidan nazorat bilan bog'lab, ularning huquqiy mazmunini keng yoritgan.

G'arb olimlari orasida Immanuel Kant (inson sha'ni va tananing vosita sifatida ishlatilmasligi tamoyili), Jon Lokk (tabiiy huquqlar), Jon Rouls (shaxsning daxlsiz huquqlari), Ronald Dvorkin (huquqlarning absolyut ustunligi) kabi mutafakkirlarga tayangan nazariy yondashuvlar somatik huquqlarning falsafiy asosini yaratib bergan. Bioetika bo'yicha UNESCO deklaratsiyalari, Oviedo Konvensiyasi, Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlari mazkur huquqlarning xalqaro me'yorlarini belgilaydi.

Germaniya bo'yicha adabiyotlar konstitutsiyaviy sud qarorlari (abort, o'z joniga qasd qilishga ko'maklashish, tibbiy rozilik) hamda Transplantatsiya to'g'risidagi qonun, Genetik tahlil to'g'risidagi qonun kabi normativ manbalarda aks etgan. O'zbekiston bo'yicha so'nggi yillarda tibbiyot, bioetika va huquqiy islohotlarga oid ilmiy maqolalar, shuningdek, Konstitutsiya, "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonun, transplantatsiya va reproduktiv tibbiyot bo'yicha me'yoriy hujjatlar somatik huquqlar mavzusining huquqiy asosini belgilaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar somatik huquqlar nazariyasining rivojlanishi, uning falsafiy ildizlari, tibbiy-huquqiy talqinlari hamda turli davlatlarning amaliy

yondashuvlarini qamrab olgan bo'lib, ushbu maqolada ular qiyosiy-huquqiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Muhokama.** Somatik huquqlar – huquqiy maydonda qanday talqin qilinadi? Umumiy ma'noda, somatik huquqlar shaxsning o'z tanasiga oid munosabatlarini tartibga soluvchi huquqlar majmui sifatida ta'riflanadi. Masalan, rus tadqiqotchisi M.A. Lavrik va boshqalar somatik huquqlarni “inson tomonidan o'z tanasi ustidan mustaqil ravishda vakolatli harakatlar qilish imkoniyati, ya'ni o'z tanasini 'restavratsiya qilish', funksional imkoniyatlarini o'zgartirish kabi xatti-harakatlarni amalga oshirish huquqi” deb ta'riflagan[3,7]. E.L. Potseluev va E.S. Danilova esa somatik huquqlarni “insonning biologiya, genetika, tibbiyot va texnika yutuqlari yordamida o'z tanasiga oid huquqiy ahamiyatga molik qarorlarni erkin va mas'uliyatli qabul qilish imkoniyatini jamiyat va davlat tan olishi” deb ta'riflaydi[4,17]. Ushbu ta'riflarda somatik huquqlarning mazmuniy tomoni, ya'ni, o'z tanasi taqdirini hal etishdagi avtonomiya ustuvor ekanini ko'rish mumkin. Bu yondashuvlar somatik huquqlarning mohiyatini shaxsning jismoniy yaxlitligi va avtonomiyasini huquqiy tan olinishini to'g'ri aks ettiradi. Shuningdek, ularni amalga oshirish mas'uliyat va jamiyat manfaatlari bilan chegaralanishi mumkinligini ham ta'kidlaydi.

Somatik huquqlarning falsafiy asoslari turli manbalardan kelib chiqadi. Tarixiy jihatdan, bu tushuncha tabiiy huquq nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Tabiiy huquq an'anasida inson hayoti va ozodligi ajralmas huquqlar sifatida e'tirof etilgan bo'lib, insonning tanasi ham uning tabiiy huquqlaridan biridir. Masalan, Jon Lokk hayot va erkinlikni insonning tug'ma huquqlari deb belgilagan bo'lsa, Immanuel Kant inson qadr-qimmatini eng oliy tamoyil deb bilib, hech kimni shunchaki vosita sifatida emas, balki doimo maqsad sifatida ko'rish lozimligini uqtirgan[5,145]. Kant falsafasida bu tamoyil insonning o'z tanasi va sha'ni ustidan bo'lgan huquqini ham nazarda tutadi, chunki boshqalarning inson tanasidan vosita sifatida foydalanishi uning qadr-qimmatini poymol etadi. Muallifning fikricha, tabiiy huquq va Kant tamoyillari somatik huquqlarning falsafiy zaminini ta'minlab, inson tanasining daxlsizligi va avtonomiyasini daxlsiz qadriyat sifatida ilgari suradi.

Zamonaviy huquq falsafasida Jon Rouls va Ronald Dvorkin kabi olimlar somatik va shaxsiy huquqlar ahamiyatini o'z nazariyalarida bilvosita yoritib berganlar. J. Rouls o'zining adolat nazariyasida har bir inson jamiyat farovonligi yo'lida qurbon qilinmaydigan daxlsiz huquqlarga ega ekanini ta'kidlaydi[6,3]. U shunday yozadi: *“Har bir shaxs adolatga asoslangan daxlsizlikka ega bo'lib, jamiyatning umumiy farovonligi ham uni bekor qila olmaydi. Shuning uchun, adolat ayrimlar erkinligining yo'qotilishini boshqalar ko'proq foyda ko'rishi bilan oqlanishini inkor etadi”*. Rouls nazariyasiga muvofiq, shaxs erkinligi va huquqlari “bir xilda fuqarolik ozodliklari” sifatida muqim belgilanishi lozim bo'lib, ularni ijtimoiy manfaatlar uchun “savdolashishga” yoki hisob-kitob qilishga yo'l qo'yilmaydi[6,4]. Muallif ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaydi: Roulsning tamoyillari shuni ko'rsatadiki, somatik huquqlar kabi asosiy shaxsiy huquqlar hech qanday utilitar yoki kollektiv maqsadlar yo'lida bekor qilinmasligi lozim, chunki bu huquqlar adolatning birinchi darajali talabi sifatida qaraladi. Demak, insonning tanasi ustidan huquqi adolatli jamiyatda muqaddas va daxlsiz sanaladi.

R. Dvorkin esa huquqlarni “ustunlik beruvchi huquqlar” deb talqin qilib, davlat va jamiyat manfaatlarini cheklovchi, ulardan ustun qo'yiluvchi qadriyat sifatida ko'radi[7,3]. Dvorkin ta'kidlashicha, agar biror huquqni umumiy manfaatlarni hisobga olib “muvozanatlashtirish”ga ruxsat berilsa, u holda o'sha huquqni inkor qilgan bo'lamiz. Masalan,

shaxsning tanasi ustidan qaror qabul qilish huquqi jamiyat manfaati yoki davlat paternalizmi bilan osonlikcha cheklansa, bu huquqning o'zi mazmunan yo'qqa chiqadi. Muallifning mulohazasiga ko'ra, Dvorkin huquqlarni mutlaq deb bilmasa-da, ularni odatiy siyosiy manfaatlar bilan vaznga tortishni qoralashi somatik huquqlar uchun ham juda muhimdir. Chunki, aynan insonning tanasiga doir huquqlar davlat hokimiyati tomonidan osonlikcha poymol etilishi mumkin bo'lgan soha hisoblanadi. Dvorkinning yondashuvi esa "huquqiy chegarani aniq belgilash va unga amal qilish" lozimligini uqtiradi: somatik huquqlar bor joyda davlat ularni mensimaslikka haqqi yo'q, aks holda shaxsning daxlsiz huquqi bekor bo'ladi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, somatik huquqlar tarkibiga nimalar kirishi masalasi ham muhimdir. Tadqiqotchilar bu borada turli tasniflarni taklif etishgan. Masalan, M.A. Lavrik somatik huquqlarni quyidagicha toifalarga ajratadi: 1) o'lim huquqi (ehtiyoj tug'ilganda o'z hayotini yakunlash, evtanaziya); 2) inson a'zolari va to'qimalariga oid huquqlar (masalan, organ donorligi huquqi); 3) jinsiy huquqlar 4) reproduktiv huquqlar (farzand ko'rishga oid ijobiy huquqlar – masalan, sun'iy urug'lantirish, va salbiy huquqlar – masalan, abort, sterilizatsiya, kontrasepsiya qilish huquqi); 5) jinsni o'zgartirish huquqi; 6) klonlashtirish huquqi (butun organizmni yoki uning alohida organlarini) kabi huquqlar.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar somatik huquqlar tushunchasini kengroq ma'noda ishlatib, unga hayot sifati va sog'liq bilan bog'liq huquqlarni ham kiritadilar. Masalan, M.P. Tyurina "biologik huquqlar" tushunchasini qo'llab, unga quyidagilarni kiritadi: hayot huquqi (barcha huquqlarning asosi sifatida), uyqu huquqi, sog'liq uchun xavfsiz atrof-muhit huquqi, xavfsiz oziq-ovqat iste'moli huquqi, psixika (ruhiy holat)ni himoya qilish huquqi, o'z tabiiy holicha saqlanish (genofondni asrash) huquqi, nasl qoldirish huquqi, o'z tanasini erkin tasarruf etish va hayot tarzini tanlash huquqi (jumladan, turmush o'rtog'ini va farzandlar sonini tanlash erkinligi), inson a'zolari va to'qimalariga oid huquqlar, reproduktiv huquqlar, genomik yaxlitlik huquqi (genomga noqonuniy aralashuvlardan himoya qilinish; masalan, klonlashtirish va genom ustida tajribalar taqiqlanishi). Ko'rinib turibdiki, bu yondashuv somatik huquqlarni juda keng qamrab oladi. Bunday keng yondashuv mazmunan to'g'ri bo'lsa-da (chunki inson tanasi bilan bog'liq barcha manfaatlarini o'z ichiga oladi), "somatic huquqlar" atamasini ortiqcha kengaytirib yuborishi mumkin. Amaliy jihatdan somatik huquqlar asosan tibbiy-biologik aralashuvlar bilan bevosita bog'liq shaxsiy huquqlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiq, chunki huquq tizimi nuqtai nazaridan ular alohida tartibga solishni talab qiladi (masalan, transplantatsiya, reproduktiv texnologiyalar, evtanaziya kabi masalalar).

Umuman olganda, somatik huquqlarning nazariy asoslari insonning shaxsiy avtonomiyasi, tanasi daxlsizligi va qadr-qimmatini tamoyillariga borib taqaladi. Quyida ana shu tamoyillarning Germaniya va O'zbekiston konstitutsiyaviy-huquqiy doktrinasida qanday aks etganini qiyosiy tahlil qilamiz.

Germaniyada somatik (tana bilan bog'liq) huquqlar konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilgan asosiy huquqlar qatoriga kiradi. Germaniya Federativ Respublikasining 1949 yilda qabul qilingan Asosiy Qonuni (Grundgesetz) 2-moddasining 2-xatboshida quyidagi norma mustahkamlangan: *"Har bir shaxs hayot va jismoniy yaxlitlik huquqiga ega. Shaxs erkinligi daxlsizdir. Bu huquqlar faqat qonunga binoan cheklanishi mumkin"*. Ushbu norma hayot huquqi bilan bir qatorda jismoniy yaxlitlik (tananing daxlsizligi) huquqini kafolatlaydi. "Jismoniy yaxlitlik" (nemischa *körperliche Unversehrtheit*) deganda, shaxsning tanasiga davlat aralashuvi yoki boshqa shaxslar tomonidan tajovuz qilinmasligi, ya'ni inson tanasining butunligi va

daxlsizligi tushuniladi. Germaniya Konstitutsiyasida shuningdek inson sha'ni (qadr-qimmati)ning daxlsizligi 1-moddada alohida va eng oliy tamoyil sifatida e'lon qilingan: *"Inson sha'ni daxlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish – barcha davlat hokimiyati majburiyatidir"*. Shu tariqa, Germaniya huquqida somatik huquqlar bevosita yoki bilvosita inson sha'ni va shaxs erkinligi tamoyillariga tayanadi.

Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi (Bundesverfassungsgericht) o'z qarorlari orqali mazkur huquqlarning mazmunini boyitib keladi va somatik huquqlar teoriyasini rivojlantiradi. Misol uchun, abort (homilani oldirish) masalasi bo'yicha 1975 va 1993 yillardagi mashhur qarorlarida sud onaning shaxsiy (tanaga oid) huquqlari bilan homilaning hayotga huquqi o'rtasidagi murakkab manfaatlar to'qnashuvini hal etishga harakat qilgan. Federal Konstitutsiyaviy sud, Germaniya Asosiy Qonunining yuqoridagi normalariga tayanib, davlat homila hayotini ham himoya qilish majburiyatiga ega deb topgan, shu bilan birga homilador ayolning shaxsiy hayot va tana daxlsizligi huquqi ham inobatga olinishi lozimligini qayd etgan. Natijada Germaniyada abortga nisbatan "indikatsiya modeli" joriy qilingan bo'lib, bunda muayyan shartlar (tibbiy ko'rsatma, ijtimoiy ko'rsatma yoki homiladorlikning dastlabki muddatida maxsus maslahatlashuvdan o'tish) bajarilganda abort javobgarlikdan holi bo'ladi. Bu yondashuv, nazariy nuqtai nazardan, somatik huquqlarni absolyut emas, balki boshqa huquqlar bilan muvozanatlashgan tarzda talqin qilish zaruratini ko'rsatadi. Muallif fikricha, Germaniya tajribasi abort masalasida "hayot huquqi" va "tanaviy avtonomiya huquqi" o'rtasida nozik muvozanat topishga intilish bilan ahamiyatlidir. Bu, somatik huquqlar mutlaq bo'lishi qiyin, chunki ular boshqa manfaatlar bilan to'qnashishi mumkinligidan dalolat beradi.

Germaniya huquq tizimida somatik huquqlar faqat konstitutsiyaviy normalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki ko'plab maxsus qonun hujjatlarida tartibga solingan. Masalan, Transplantatsiya to'g'risidagi qonun (Transplantationsgesetz) donorlik va organ ko'chirib o'tkazish masalalarini batafsil belgilaydi; Genetik tahlillar to'g'risidagi qonun inson genomini tahlil qilish va genetik ma'lumotlardan foydalanish chegaralarini belgilaydi; Pasientlarning ixtiyoriy roziligi va tibbiy aralashuv masalalari fuqaro huquqi hamda jinoyat huquqi normalarida aks etgan (masalan, har qanday tibbiy muolaja oldidan shifokor bemordan ongli rozilik olishi shart, aks holda bu huquqbuzarlik deb topiladi). Bu hujjatlar zahirida ham tanaviy avtonomiya hamda tana daxlsizligi tamoyillari yotadi.

Xulosa qilish mumkinki, Germaniya huquqiy doktrinasida somatik huquqlar inson sha'ni va shaxs erkinligi tamoyillari bilan mustahkamlangan. Inson tanasining daxlsizligi konstitutsiyaviy darajada tan olingan va sud amaliyoti orqali konkret huquqlar majmuasi shaklida rivojlantirilgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, O'zbekiston somatik huquqlar konsepsiyasini endilikda joriy eta boshlagan bo'lsa-da, uning negizlari aslida Konstitutsiyada va qonunlarda allaqachon mavjud bo'lgan. Somatik huquqlar nazariyasi O'zbekistonda inson huquqlarining yangi bosqichi sifatida qaralmoqda, chunki u zamonaviy bioetika muammolarini (organ transplantatsiyasi, surrogat onalik, reproduktiv texnologiyalar, genom tahriri va hokazo) huquqiy tartibga solishda yo'naltiruvchi tamoyillarni beradi. Bu sohada xalqaro huquq normalari (masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining sog'liq huquqi, YUNYeSKOning Bioetika va inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari va biotibbiyot bo'yicha Oviedo Konventsiyasi va boshqalar) O'zbekiston tomonidan o'rganilmoqda va implementatsiya qilinmoqda.

O'zbekiston tajribasining o'ziga xos jihati – somatik huquqlarni joriy etishda milliy mentalitet va qadriyatlarga moslash ehtiyojidir. Masalan, organ donorligi masalasini olaylik: ko'plab g'arb davlatlarida bu odatiy amaliyot bo'lsa, bizning jamiyatda bunga nisbatan ongda ma'lum to'siqlar bor. Yana bir misol – surrogat onalik masalasi. Hozirda O'zbekiston qonunchiligida surrogat onalik to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan, lekin noqonuniy emas deb talqin qilinadi (ya'ni, man etilmagan hudud sifatida). Bu borada turli fikrlar mavjud: birovlar surrogat onalikni ayolning o'z tanasi ustidan huquqini amalga oshirishi deb ko'rishsa, boshqalar uni axloqan nomaqbul deb baholashadi. Bu bahs ham aslida somatik huquq (ayolning o'z reproduktiv tanasi ustidan tasarruf huquqi) va axloqiy-chegaraviy tamoyillar to'qnashuvi deyish mumkin.

**Natijalar.** Yuqoridagi tahlillar asosida, somatik huquqlar – insonning o'z tanasi ustidan huquqlari va erkinliklari – hozirgi davr huquqiy va falsafiy tafakkurining muhim qismi ekanini ko'rish mumkin. Germaniya va O'zbekiston tajribasini qiyoslab, quyidagi ilmiy natijalarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, somatik huquqlar nazariyasining falsafiy asosi har ikkala yurisdiksiyada inson qadr-qimmati, shaxs erkinligi va tananing daxlsizligi tamoyillariga tayanadi. Germaniyada bu tamoyillar konstitutsiyada aniq ifodalangan va sudlar tomonidan keng talqin qilingan: masalan, har bir insonning jismoniy yaxlitligi huquqi va o'z hayotini tugatish huquqigacha e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham inson oliy qadriyat ekani Konstitutsiyada e'lon qilingan. Demak, nazariy jihatdan, har ikkala mamlakat inson tanasining hurmati va daxlsizligi g'oyasini qabul qiladi. Insonning jismoniy va ma'naviy yaxlitligini hurmat qilish – huquqiy davlatning asosiy burchidir va bu prinsip global kontekstda ham universalidir.

Ikkinchidan, Germaniya va O'zbekistonda somatik huquqlarning huquqiy himoyasi darajasi va shakllari sezilarli darajada farqlanadi. Germaniyada somatik huquqlar an'anaviy huquq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, kuchli konstitutsiyaviy nazorat va mustaqil sud amaliyoti orqali hayotga tatbiq etiladi. Konstitutsiyaviy sud qarorlari huquqiy pretsedent sifatida somatik huquqlar doirasini muntazam kengaytirib, aniq mezonlarni belgilab beradi. O'zbekistonda esa somatik huquqlar hozirgi davrga kelib, alohida e'tirof etilayotgan bo'lib, ularni himoya qilish uchun konstitutsiyaviy asoslar yaratilmoqda. O'zbekiston oldida turgan vazifa – Germaniya va boshqa ilg'or tajribalardan o'rganib, somatik huquqlarni amalda ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratishdir. Bu borada fuqarolarning huquqiy ongi va bioetik madaniyatini oshirish ham katta ahamiyatga ega.

Uchinchidan, somatik huquqlar doirasiga kiruvchi muayyan masalalarda ikki mamlakat yondashuvida o'xshashliklar ham, farqlar ham bor. Masalan, reproduktiv huquqlar (abort, kontratsepsiya) bobida Germaniya ham, O'zbekiston ham homila hayotini muhofaza qilish va ayolning tanaviy huquqlarini muvozanatlashga harakat qiladi – qonunlar abortni muddat chegaralari va shartlar bilan ruxsat etadi. Organ donorligi va transplantatsiya masalasida Germaniyada "rozilik tizimi" amal qilsa (ko'pchilik hollarda donor bo'lish uchun tiriklikda rozilik talab qilinadi yoki maxsus donorlik kartalari joriy etilgan), O'zbekistonda esa donorning o'limidan oldin yozilgan donorlikka rozilik haqidagi notarial tartibda tasdiqlangan murojaati asos bo'ladi. Evtanaziya bo'yicha esa keskin farq bor: Germaniya Konstitutsiyaviy sudi o'z joniga qasd qilishga ko'maklashishga ruxsat bersa, O'zbekistonda bunday amaliyotga hali yo'l qo'yilmagan (jinoyat qonunchiligida bu jinoyat hisoblanadi). Bu farqlar nafaqat huquqiy tizim farqlari, balki jamiyatlarning axloqiy qarashlaridagi tafovutlardan ham kelib chiqadi. Muallif



fikricha, O'zbekiston jamiyati asta-sekin tibbiyot va bioetika sohasidagi murakkab dilemmalarga yuz tutgan sari, bu masalalarda keng jamoatchilik muhokamasi va ilmiy yondashuv zarur: masalan, surrogat onalikni qonuniylashtirishmi yoki taqiqlash, evtanaziyani hech bo'lmasa passiv shaklda (apparatdan uzishga ruxsat) tan olish kerakmi va hokazo. Bu qarorlar qabul qilinayotganda Germaniya tajribasi qo'l kelishi mumkin, ammo milliy madaniy qadriyatlar ham inobatga olinishi shart.

To'rtinchidan, somatik huquqlarni nazariy jihatdan mustahkamlash va himoya qilishda xalqaro huquq va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish zarur. Germaniya ko'p yillar davomida Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlari va xalqaro bioetika konvensiyalariga aktiv ishtirok etib keladi, bu esa milliy huquqni boyitadi. O'zbekiston ham BMTning inson huquqlari bo'yicha komitetlari tavsiyalarini, UNESCO deklaratsiyalarini o'z milliy qonunchiligiga implementatsiya qilishi kerak.

**Xulosa.** Somatik huquqlar zamonaviy bioetika va huquq falsafasining tutashgan nuqtasida shakllanayotgan nisbatan yangi, biroq chuqur nazariy asosga ega bo'lgan huquqiy institutdir. Ushbu huquqlar insonning jismoniy yaxlitligi, tanasi ustidan avtonom qaror qabul qilish vakolati va o'zligini anglash jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsiy erkinlikning fundamental ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Shaxs o'z tanasi ustidan huquqlarga ega ekanligi, bir tomondan, uning daxlsizligini kafolatlaydi; ikkinchi tomondan esa, tanaga oid qarorlar oqibatini ongli ravishda anglash va mas'uliyatni zimmasiga olishni taqozo etadi. Shu jihatdan somatik huquqlar inson erkinligi bilan bog'liq bo'lgan eng murakkab va puchaytirilishi qiyin bo'lgan sohalaridan biri bo'lib, ularning mazmunini aniqlash jarayonida huquqiy me'yorlar, axloqiy tamoyillar, tibbiy amaliyot va ilm-fan taraqqiyoti o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Germaniya tajribasi somatik huquqlarni institutsional jihatdan mustahkamlashning mukammal namunasi sifatida alohida e'tirofga loyiqdir. Asosiy Qonunda inson sha'ni va jismoniy yaxlitlikning eng oliy qadriyat sifatida tan olinishi, Konstitutsiyaviy sudning mazkur normalarni keng talqin qilishi hamda organ transplantatsiyasi, tibbiy aralashuvga rozilik, genetika va reproduktiv huquqlar bo'yicha qo'llanilayotgan aniq huquqiy mezonlar somatik huquqlarni amalda ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, demokratik institutlar mustahkam bo'lgan jamiyatda shaxsning tanaviy avtonomiyasi kengroq himoyalaniishi mumkinligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston tajribasi esa ushbu huquqiy institutning shakllanayotgan bosqichida bo'lib, milliy qonunchilikda tananing daxlsizligi va shaxsiy avtonomiya tamoyillarining asta-sekin aniqlashtirilayotgani kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, somatik huquqlar O'zbekistonda so'nggi yillarda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-ma'naviy diskursning ham muhim qismiga aylana boshladi. Tibbiyot amaliyoti kengayib, transplantatsiya, reproduktiv texnologiyalar, surrogat onalik, genom tahriri kabi masalalar bo'yicha ijtimoiy ehtiyoj kuchayib borar ekan, shaxsning tanasi ustidan huquqlari masalasi ham tobora dolzarb tus olmoqda. Bu jarayonda xalqaro me'yorlarni o'rganish, milliy mentalitet va axloqiy qadriyatlarni inobatga olgan holda huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi tarixiy-falsafiy farqlarga qaramay, somatik huquqlar konsepsiyasi har ikki yurisdiksiyada inson qadr-qimmati va shaxsiy erkinlik tamoyillariga tayangan holda shakllanmoqda. Germaniyada somatik huquqlar allaqachon huquq tizimining asosiy bo'g'inlaridan biriga aylangan bo'lsa,

O'zbekistonda bu yo'nalish izchil rivojlanish bosqichida bo'lib, uni mustahkamlash uchun yetarli konstitutsiyaviy, xalqaro-huquqiy va institutsional baza mavjud.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkin: somatik huquqlar – inson huquqlarining eng nozik, ko'p qirrali va zamonaviy tibbiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishidir. Bu huquqlarni samarali ta'minlash, birinchi navbatda, shaxsning jismoniy daxlsizligini hurmat qilish, avtonomiya tamoyillariga qat'iy rioya etish, huquqiy me'yorlarning barqarorligini ta'minlash va jamiyatda bioetika madaniyatini rivojlantirishga bog'liq. O'zbekistonning ushbu yo'nalishda olib borayotgan islohotlari, xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirishga intilishi va somatik huquqlarni huquqiy tizimning alohida instituti sifatida shakllantirishga qilayotgan sa'y-harakatlari kelgusida ushbu sohaning izchil rivojlanishiga zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abashidze, A.A. & Solntsev, A.M. (2009). Новое поколение прав человека: соматические права // *Московский журнал международного права*, №1 (73), pp. 69–82.
2. Kruss, V.I. (2000). Личностные («соматические») права человека в конституционном и философско-правовом измерении: к постановке проблемы // *Государство и право*, №10, pp. 43–50.
3. Lavrik, M.A. (2007). *Правое тело. Соматические права человека: взгляд из Сибири*. Иркутск: Изд-во Иркутского ун-та.
4. Potseluev, E.L. & Danilova, E.S. (2021). Соматические права: совокупность прав человека на принятие юридически значимых решений в отношении своего тела с помощью достижений биологии, генетики, медицины и техники // *Современные проблемы биоэтики*, Материалы конф.
5. Klein, E. (2001). "Human Dignity in German Law". In *The Concept of Human Dignity in Human Rights Discourse*. Leiden, The Netherlands: Brill | Nijhoff. [https://doi.org/10.1163/9789004478190\\_011](https://doi.org/10.1163/9789004478190_011)
6. Rawls, J. (1971). *A Theory of Justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Dworkin, R. (1977). *Taking Rights Seriously*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Qabul qilingan referendum yo'li bilan 30.04.2023 y.
9. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz) (1949, rev. 2023). Art. 1(1) (Human Dignity) va Art. 2(2).
10. Bundesverfassungsgericht (Federal Constitutional Court of Germany) (2020). Judgment of 26 February 2020, 2 BvR 2347/15 (Press Release No. 12/2020) – *Right to a self-determined death* (Article 2(1) in conjunction with Article 1(1) GG)[1].
11. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risida"gi Qonuni (2019, yangi tahrir).
12. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni (1996).
13. UNESCO Bosh konferensiyasi (2005). Bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasi.
14. Oviedo Convention (1997). Convention on Human Rights and Biomedicine, Council of Europe.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).